

TARBIYASI OG‘IR O‘SMIRLARNI TARBIYALASH VA QAYTA TARBIYALASH YO‘LLARI

Sarsenbaeva Rayhon Maxanbetovna

ISFT instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrası dotsenti v.b., p.f.n.

rayhon.sarsenbaeva64@mail.ru; +99890 9889097

TARBIYASI OG‘IR O‘SMIRLARNI TARBIYALASH VA QAYTA TARBIYALASH YO‘LLARI

Sarsenbaeva Rayhon Maxanbetovna

ISFT instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrası dotsenti v.b., p.f.n.

rayhon.sarsenbaeva64@mail.ru; +99890 9889097

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida tarbiyasi og‘ir o‘smirlarni tarbiyalash va qayta tarbiyalash yo‘llari haqidagi ma‘lumotlar berilgan. Xususan, o‘smir, tarbiya, tarbiyasi og‘ir o‘smirlar bilan ishlash, ijtimoiy pedagog, uning pedagogik faoliyati, tarbiyasi og‘ir o‘smirlarning o‘tmishi, bugungi kunini tahlil qilish, uning kelajagini tasavvur etish, o‘smirni qayta tarbiyalash, uning bir nechta bosqichlari, ijtimoiy pedagog vazifalari kabilar xususidagi ma‘lumotlar ifodalangan.

TAYANCH SO‘ZLAR: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, tarbiyasi og‘ir o‘smirlar, ularni tarbiyalash, qayta tarbiyalash yo‘llari, o‘smir, ijtimoiy pedagog, uning pedagogik faoliyati, tarbiyasi og‘ir o‘smirlarning o‘tmishi, bugungi kunini tahlil qilish, uning kelajagini tasavvur etish, o‘smirni qayta tarbiyalash, uning bir nechta bosqichlari, ijtimoiy pedagog va uning vazifalari.

АННОТАЦИЯ: В этой статье представлена информация о способах воспитания и перевоспитания подростков с тяжелыми формами обучения в общеобразовательных школах. В частности, представлена информация о подростке, воспитании, работе с трудными подростками, социальном педагоге, его педагогической деятельности, анализе прошлого, настоящего трудных подростков, видении их будущего, перевоспитании подростка, его нескольких этапах, задачах социального педагога.



КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Общеобразовательные школы, подростки с тяжелым воспитанием, пути их воспитания, перевоспитания, подросток, социальный педагог, его педагогическая деятельность, прошлое трудного подростка, анализ его настоящего, видение своего будущего, перевоспитание подростка, его несколько этапов, социальный педагог и его задачи.

ANNOTATION: This article provides information on ways to educate and re-educate adolescents with severe forms of education in secondary schools. In particular, information is provided about a teenager, upbringing, work with difficult teenagers, a social pedagogue, his pedagogical activity, analysis of the past and present of difficult teenagers, vision of their future, re-education of a teenager, its several stages, tasks of a social pedagogue.

KEYWORDS: General education schools, adolescents with difficult upbringing, ways of their upbringing, re-education, a teenager, a social teacher, his pedagogical activity, the past of a difficult teenager, an analysis of his present, a vision of his future, the re-education of a teenager, its several stages, a social teacher and his tasks.

Ma'lumki, bugungi kunda maktablardagi asosiy muammolardan biri bu tarbiyasi og'ir o'smir o'smirlar hisoblanadi. Bu davrda o'smirning shaxs sifatida shakllanish jarayoni nihoyatda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, o'smirlar bilan ishlashda ota-ona va tarbiyachi-o'qituvchilar uchun ham qiyin davr hisoblanadi.

“2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonining 44-maqjadi quyidagicha belgilangan: Maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish.

Maktabda faoliyat olib borishi uchun har bir fan bo'yicha mahalliy yoki xalqaro sertifikatli talablarini belgilash.

Toifaga ega bo'lmagan maktab o'qituvchilarining bilimi va ko'nikmalarini diagnostikadan o'tkazish.

Umumta'lim maktablarini, ayniqsa chekka hududlardagi ta'lim maskanlarini oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan to'ldirish ishlarini davom ettirish.

Maktablarda direktor va uning o'rinbosarlarini tayinlash tizimini maktab o'qituvchilari va ota-onalarning ishtiroki ta'minlanishini nazarda tutgan holda yanada takomillashtirish.



Xalq ta'limi tizimi tuman bo'limlari faoliyatini to'liq raqamlashtirish hisobiga optimallashtirish¹.²

Tarbiyasi og'ir o'smirlar bilan ish olib borish – pedagogik qayta tarbiyalash jarayonini ko'zda tutadi. Qayta tarbiyalash – tarbiyasi og'ir o'smirning muomala-munosabati va yurish-turishidagi turli cheklanishlarni yengib o'tishi yoki uni bartaraf etishi tushuniladi. Qayta tarbiyalash jarayoni ijtimoiy pedagog hamda tarbiyasi og'ir o'smirlar uchun ham og'ir jarayon hisoblanadi. Tarbiyasi og'ir o'smirlar o'zining kelgusi hayot tarzi bilan qiziqishi lozim. Ijtimoiy pedagog esa, tarbiyasi og'ir o'smirlarning o'tmishi, bugungi kunini tahlil qilishi, uning kelajagini tasavvur etishi lozim bo'ladi.

O'smirni qayta tarbiyalash jarayoni bir necha bosqichdan iborat:

1. • Tarbiyasi og'ir o'smirni o'rganib chiqish;
2. • O'smirning muolala-munosabati va yurish-turishini o'zgartirish uchun uning ruhiyatiga ta'sir etish;
3. • Ijobiy axloqiy sifatlarini to'plash;
4. • Inqirozdan chiqish va o'z-o'zini tarbiyalashga o'tish

Shuni ham inobatga olish kerakki, bu jarayonga ijtimoiy pedagogdan tashqari tarbiyasi og'ir o'smir mansub bo'lgan o'quvchilar jamoasi ham qo'shiladi. Bunda, ijtimoiy pedagogdan koordinator vazifasini bajarish, guruh jamoasini o'z o'rtoqlarini qayta tarbiyalashga birgalikda yo'naltirishi kerak. Tarbiyasi og'ir o'smirlar bilan ishlayotgan ijtimoiy pedagog o'zining samarali metodlaridan foydalanib ularning "tarbiyasi" ga ijobiy ta'sir etish chora-tadbirlarini ko'radi. Bunday axloqiy yondashuv tarbiyasi og'ir o'smirlarga, uning yurish-turishiga, muomala-munosabatiga, ijobiy shakllanishiga amaliy yordam beradi.

Bugungi kunda tarbiyasi og'ir o'smir o'smirlar ichkilikbozligi keng tarqalishi eng jiddiy ijtimoiy pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ichkilikbozlik tushunchasi ikki o'rinda aniqlanadi.

¹ Optimallashtirish – pedagogik jarayonda kam kuch, kam mablag', kam vaqt sarf qilib, yuqori ko'rsatkichlarga erishish

² 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 60-sonli Farmoni. 2022 yil 28-yanvar



1. **Tibbiy nuqtai nazardan**, tarbiyasi og‘ir o‘smir o‘smirlar (ichkilikbozlikka berilishi) spirtli ichimliklar iste‘mol qilishi orqali yengib bo‘lmas ehtiyoj tug‘iladi va bu o‘smirda namoyon bo‘ladigan surunkali kasallik hisoblanadi.

2. **Ijtimoiy pedagogik nuqtai nazardan**, ichkilikbozlik spirtli ichimlikka deviant patologik ruju qo‘yish bilan xarakterlanadigan deviant xulq-atvor shaxslaridan biridir.

O‘smirlik davrida ichkilikbozlik muammosi shaxs ijtimoiylashuvi jarayoni bilan bevosita bog‘liq. Chunki, *birinchidan*, u aniq ijtimoiy-pedagogik sabablar tufayli kelib chiqadi, *ikkinchidan*, odatda deviant xulq-atvor kabi g‘ayri ijtimoiy xislatlarning kelib chiqishiga olib keladi.³

O‘smirlarda ichkilikbozlik namoyon bo‘lishining ijtimoiy-pedagogik va psixologik omillari bir xil bo‘lmaydi. Ular ichida mikro-ijtimoiy va shaxsiy omillarni ajratish mumkin. Masalan, shaxsiy omillar vazifasini shaxsga oid bo‘lgan xususiyatlar bajarishi mumkin. Mikro-ijtimoiy omillarga alkogollashuv ko‘rsatkichlari (ichkilik iste‘mol qilish yoshi, sabablari), oila tarkibi va unda alkogollashuv darajasi kabi ijtimoiy va ijtimoiy-pedagogik belgilar kiradi.

Umumiy o‘rta (o‘n bir yillik ta‘lim), o‘rta maxsus (to‘qqiz yillik tayanch o‘rta va ikki yillik o‘rta maxsus ta‘lim), boshlang‘ich professional ta‘lim (to‘qqiz yillik tayanch o‘rta va ikki yillik boshlang‘ich professional ta‘lim) olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi (to‘qqiz yillik umumiy o‘rta va uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi) olgan shaxslar oliy ma‘lumot olish huquqiga ega.⁴

Ijtimoiy-pedagogik omillarni shartli ravishda uchta davrga ajratiish mumkin:

1. Birinchi davr – o‘smirlikning ilk davri bo‘lib, unda o‘smirlarning alkogollashuvi ixtiyorsiz xarakterga ega bo‘ladi. Bu, bir necha sabablarga ko‘ra ro‘y beradi – ayollarda homiladorlik va emizish davrida spirtli ichimlik iste‘mol qilish, mast holatda homilador bo‘lish.

2. Ikkinchi davr – maktabgacha va kichik maktab yoshi bo‘lib, unda davrdagi eng ahamiyatli sabablar – ota-onalarning pedagogik bilimsizligi va spirtli ichimlikka qiziqishi paydo bo‘lishiga olib keluvchi oilaviy ichkilikbozlik an‘analari sabab bo‘ladi.

3. Uchinchi bosqich – o‘smirlik va o‘spirinlik davri bo‘lib, bu davrdagi asosiy sabablarga oiladagi nomaqbul holatlar, o‘smirning o‘zini namoyon qilishi, ommaviy axborot vositalari (OAV) dagi reklama, o‘smirning bekorchiligi, muammolardan qochishi, o‘smirning psixologik xususiyatlari, ichkilikbozlik oqibatlarini haqidagi bilimlarining yo‘qligi kabilar kiradi. Bu davrda tarbiyasi og‘ir o‘smirda ichkilikka ruju qo‘yish ro‘y beradi. O‘smirlarning ichkilikbozligi bir qator xususiyatlarga ega:

³ Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 234 b.

⁴ O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risi”dagi Qonuni. O‘RQ-637 son 23.09.2020.



O'smirlarning ichkilikbozligi bir qator xususiyatlarga ega:

✓ spirtli ichimliklarga tez ko'nikish;

✓ ichkilikbozlikning tez rivojlanishi;

✓ davolashning samaradorligi;

✓ organizmning tez buzilishi jarayoni
maktabgacha, kichik maktab va o'smirlik davrida
jadal kechadi

Ijtimoiy-pedagogik-psixologik omillar shartli ravishda gina ikki davrga ajratiladi.

Alkogollashuv jarayoniga ta'sir ko'rsatar ekan, ular yaxlit va kompleks tarzda o'rganilishi lozim.

Birinchi davr – o'smirlikning ilk davri bo'lib, unda o'smirlarning alkogollashuvi ixtiyorsiz xarakterga ega. Bu bir necha sabablarga ko'ra ro'y beradi – homiladorlik va emizish davrida spirtli ichimlik iste'mol qilish, mast holatda homilador bo'lish, bu ijtimoiy biologik nuqtai nazardan o'rganiladi. Ichki organ va a'zolarining jadal shakllanish jarayoni kechayotganda homilaning zaharlanishi rivojlanishning turli anomaliyalariga olib keladi-oyoq va qo'llarning rivojlanmasligi, barmoqlarning birlashib ketishi, jinsiy a'zoldagi nuqsonlar, bosh hajmining kichiklashishi va boshqalar.

Homila alkogol oldida himoyasiz bo'lgani sababli u alkogolning miyaga kirishini bartaraf eta olmaydi va buning natijasida istisqo, aqli norasolikni kuzatsak bo'ladi. Bunday o'smirlar garchi o'smirliklarida hayot bilan vidolashmasalar ham butun umr aqli noraso bo'lib o'tadilar.

Ikkinchi davr – maktabgacha va kichik maktab Yoshi, bu ijtimoiy-pedagogik jihatdan o'rganiladi. Bu davrdagi eng ahamiyatli sabablar – ota-onalarning pedagogik bilimsizligi va spirtli ichimlikka qiziqishi natijasida paydo bo'lishiga olib keluvchi oilaviy ichkilikbozlik an'analari.


Biologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ichkilikbozlik irsiy jihatdan avlodan-avlodga o'tmaydi, faqatgina unga mayl o'tadi. Tarbiyasi og'ir o'smirlarda ichkilikbozlikning rivojlanishiga ota-onalarning yomon odatlari, oiladagi turli holarlar, vaziyat hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.



Spirtni ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni muntazam ravishda iste'mol qilayotgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, hisobga olish, tekshirish, davolash va tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilishni tashkil etish sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.⁵

Tarbiyasi og'ir o'smirning maktabdagi sinfdosh do'stlarining xususiyatlaridan kelib chiqib ota-onalar shuni esda tutishlari lozimki, spirtni ichimliklar iste'mol qilishga nisbatan salbiy munosabatlarni shakllantirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Bunda, tarbiyasi og'ir o'smir shaxsiyatiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, uning maktab hayotiga doimiy e'tibor qaratish, maktabda va oilada gigiyenik me'yorlariga amal qilishini nazorat qilish kerakdir.⁶

Agar oilada hech kim o'smirning maktab hayoti bilan qiziqishmasa yoki nomiga qiziqsa (baholarni nazorat qilish surunkali tarzda ortda qolayotgan o'smir to'liqsizlik hissini boshidan og'ir kechiradi) maktabga nisbatan qiziqishi neytrallashadi, so'ngra tarbiyasi og'ir o'smir ta'lim olishga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi. U o'zini namoyon qilishning boshqa usullarini qidira boshlaydi. Odatda, bu tarbiyasi og'ir o'smir ko'cha guruhlariga qo'shilib qoladi va u yerda nomaqbul ishlarni amalga oshirishi mumkin. Masalan, giyohvandlik, kashandalik, fohishachilik, spirtni ichimliklar iste'mol qilish kabilarga o'rganadi. Agar o'smir spirtni ichimlik bilan tanish bo'lsa va bu "tanishuv" oilada sodir bo'lgan bo'lsa, bu o'rganish jarayoni nihoyatda oson kechadi. Natijada maktab, maktab hayotiga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi va tarbiyasi og'ir o'smir o'ziga o'xshagan o'smirlarning ko'cha guruhini afzal ko'ra boshlaydi.



⁵ Spirtni ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni muntazam ravishda iste'mol qilayotgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, hisobga olish, tekshirish va tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilish tartibi to'g'risidagi **NIZOM**. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2011-yil 17-yanvardagi 18-son [buyrug'iga](#) ILOVA. Toshkent sh., 2011-yil 17-yanvar, 18-son

⁶ Hasanboyeva N. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2019



O'smirlik davridagi asosiy sabablarga oiladagi nomaqbul holatlar, vaziyatlar, ortiqcha o'zini namoyon qilishlar, turli salbiy OAV laridagi reklamalar, o'z muammolaridan qochish, shaxsning psixologik xususiyatlari, ichkilikbozlik oqibatlarini haqidagi bilimlarning sayozligi yoki yo'qligi kiradi. Bu davrda, o'smirda ichkilikka ruju qo'yish ro'y beradi.

O'z faoliyatida ijtimoiy pedagog quyidagi vazifalarni amalga oshiradi. ijtimoiy pedagog faoliyatining **birinchi vazifasi** – tashhiz qo'yish bo'lib, u o'smirning spirtli ichimlik ichishga ruju qo'yishining oldini olishga qaratilgan. Bu vazifa spirtli ichimlik iste'mol qilishga mayli bor o'smirlar haqida axborot to'plash, uning aniq shaxsiy xususiyatlarini o'rganish, tarbiyasi og'ir o'smir oilasi to'g'risida ma'lumotlar to'plash, o'smirda salbiy ta'sir ko'rsatayotgan manbalarni o'rganish, ichkilikbozlikning yetakchilarini aniqlash, o'smirda alkogollashuviga undayotgan salbiy omillarni o'rganish, o'smirda mikromuhit ta'sirini o'rganish orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchi vazifasi – bashorat qilish. Uning mohiyati shuki, qo'yilgan tashhiz asosida ichkilikbozlikka mayli bor o'smir bilan ish olib borishning aniq ijtimoiy pedagogik dasturi ishlab chiqiladi. Bu dastur bosqichma-bosqich amalga oshib, ijtimoiy adaptatsiya, korreksiya yoki reabilitatsiyani keltirib chiqaradi.

O'z faoliyatida ijtimoiy pedagog quyidagi yettita vazifalarni amalga oshiradi:

- **Birinchi vazifasi** – tashhiz qo'yishni bilish;
- **Ikkinchi vazifasi** – bashorat qilishni bilish
- **Uchinchi vazifasi** – ta'lim-tarbiya berishni bilish;
- **To'rtinchi vazifasi** – huquqiy himoya qilishni bilish;
- **Beshinchi vazifasi** – tashkilotchilik qilishni bilish;
- **Oltinchi vazifasi** – kommunikativlik (muloqotga kirisha olishni) ni bilish;
- **Ettinchi vazifa** – profilaktik funksiyani bilish

Uchinchi vazifasi – ta'lim-tarbiya bo'lib, o'smirda uning ijtimoiy pedagogik reabilitatsiyasi davomida shakllanishi lozim bo'lgan xislatlarni, tarbiyasi og'ir o'smirlar va kattalar xulq-atvori va faoliyatiga pedagogik ta'sirni oshirish, tarbiyasi og'ir o'smir tarbiyasidagi bo'shliqlarni to'ldirish, ichkilikbozlik muammosini yengib o'tish uchun lozim bo'lgan malaka va ko'nikmalarni shakllantirishni ko'zda tutadi.



Ijtimoiy pedagogning **to‘rtinchi vazifasi** – huquqiy himoya bo‘lib, uning mohiyati shuki ijtimoiy pedagog faoliyati huquqiy asosda ko‘riladi.

Beshinchi vazifasi – tashkiliy funktsiya. U ichkilikbozlikka mayli bor o‘smir bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat yuritish turli mutaxassislarining ishtirokini talab qiladi, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish uchun sharoitlar yaratadi, o‘smirlar, kattalar uchun ijtimoiy foydali faoliyatni tashkil qiladi.

Oltinchi vazifasi – kommunikativ. Bunda ko‘zga ijtimoiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida uning ishtirokchilari orasida ko‘pgina aloqalar o‘rnatiladi.

Yettinchi vazifa – profilaktik funktsiyasi bo‘lib, u erishilgan ijobiy natijalarni mustahkamlashni ko‘zda tutadi va ichkilikbozlik alomatlarining paydo bo‘lishini bartaraf etadi. Bu vazifalar ijtimoiy patronaj o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy pedagogning o‘smirlar hayotining alkogollashuvga qarshi qaratish tarbiyalanuvchilarning yoshiga qarab o‘z xususiyatlariga ega.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF–158-sonli Farmonining 1-ilovasiga muvofiq “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi” 2030 yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlarining I-bandida: “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” dagi “Ta‘lim tizimi islohotlari” 1.1. qismining “Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish”da quyidagilar belgilab berildi:

- 1). 1 000 nafar tarbiyachi va o‘qituvchilarni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish.
- 2). Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari pedagog xodimlarining o‘rtacha ish haqini 2 barobar oshirish.
- 3). 500 ming nafar maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari xodimlarining malakasini uzliksiz oshirish.
- 4). Ehtiyoj yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar va olis hududlardagi abituriyentlar uchun pedagogik ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlarni to‘liq davlat granti asosida tayyorlash tizimini joriy qilish”⁷.

Ma‘lumki, bir yoshdan yetti yoshgacha o‘smirda odatlar shakllanishida hal qiluvchi ta‘sirni ota-onalar ko‘rsatishadi. Shuning uchun bu yoshda ijtimoiy pedagogning oila bilan ishlashi muhim ahamiyatga ega. U quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlarning madaniyatini shakllantirish, chunki faqatgina uyg‘un oilaviy munosabatlar sharoitlarida axloqiy antialkogol odatlar paydo bo‘lishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi o‘smirlarda bu odatlarning paydo bo‘lishi uchun ota-onalarda optimal xulq-atvorni shakllantirish lozim.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF–158-sonli “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni



2. O‘smir hayotiy faoliyatining sog‘lom muhitini shakllantirish.

Ijtimoiy pedagog faoliyati ota-onalarda sog‘lom ijtimoiy psixologik yo‘l-yo‘riqlarni shakllantirishga va o‘smirlarning spirtli ichimlik iste‘mol qilgani uchun ota-onalarning shaxsiy javobgarligi haqidagi fikrni ilgari surishga qaratilishi lozim. Ota-onalar bilan ichkilikbozlikka qarshi kurash o‘smir yoshiga qarab amalga oshirilishi lozim. Biroq, bu faoliyatning natijasi ota-onalarni o‘smirlarning ichkilikka qarshi tarbiyasiga qo‘shilishlari kerak.

Alohida fanlardan dars beruvchi o‘qituvchilar bolalarning qiziqishlarini o‘rganib chiqib, ularni turli to‘g‘arak va tadbirlarga jalb qilishadi. Maktabda turli tarbiyaviy tadbirlar, ko‘rik musobaqalar o‘tkazishadi. Bu tadbirlarni o‘tkazishda ota-onalar va sobiq o‘quvchilar yordamidan foydalanishadi, maktabga mashhur kishilarni chaqirishadi. Maktab yoshidagi bolalarning asosiy ijtimoiylashtiruvchi omili bolalar submadaniyat⁸ini shakllantiruvchi tengqurlar jamoasidir. Ijtimoiy pedagog bu hodisalarning vazifalarini bilishi, ular o‘quvchilarning shaxsiy fazilatlarini va ijtimoiy munosabatlarini rivojlantirishdagi o‘rinlarini ko‘ra olishi lozim.⁹

Ota-onalarning ichkilikbozlikka qarshi tarbiyasi haqida bilimlar targ‘iboti quyidagi masalalarni o‘z ichiga oladi:


1. Alkogolning inson organizmiga, o‘smirning to‘liq shakllanmagan organizmiga zarari, o‘smirlarning spirtli ichimlik iste‘mol qilishlarining yomon oqibatlari, voyaga yetmaganlarni spirtli ichimliklar iste‘mol qilishga o‘rgatishning axloqiy va huquqiy javobgarligi haqida.

2. Kichik maktab yoshining spetsifik xususiyatlari anotomik, morfologik, psixofiziologik xususiyatlari bilan tanishtirish. Maktabda ta‘lim olishning birinchi bosqichiga o‘smir hayotidagi eng inqorozli bosqich sifatida ta‘rif berish, boshlang‘ich bosqichga ko‘nikish qiyinchiliklari haqida, yosh shaxsning faol ijtimoiylashuvining boshlanishi haqida, ta‘lim muhitining ijtimoiy va psixologik sharoitlari haqida ma‘lumot berish.

⁸ **Submadaniyat** ([lotincha](#): *sub* — „ost“ va [madaniyat](#)) [jamiyatshunoslik](#), [antropologiya](#) va [madaniyatshunoslik](#) atamasi bo‘lib, jamiyat madaniyatining keskin farqlanuvchi bir qismini anglatadi. Submadaniyat ichida o‘ziga xos kiyinish, [jargon](#), hatti-harakat va boshqa madaniy normalar bo‘lishi mumkin.

⁹ R.M.Sarsenbayeva. Umumta‘lim maktablarida o‘smir bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat. O‘zbekiston, OAK jurnali. Contributions of eastern thinkers to natural sciences (Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali). 2023, jild 03, nashr 11.





3. Kichik maktab yoshidan o'smirlarda sog'lom hayot tarziga intilishni shakllantirish uchun ota-onalarning optimal xulq-atvorlariga erishish. Bu oilaning ichkibozlik an'analarini kichik maktab yoshiga xos bo'lgan taqlidiy xulq-atvorni inobatga olgan holda ko'rib chiqish, o'smirning maktabdagi yutuqlariga e'tiborli bo'lish, o'smirlarning bo'sh vaqtlarini o'tkazishlariga yordam berish, uni noxush oilaviy-maishiy nizolardan holiroq qilish. Shuningdek, ijtimoiy pedagog ota-onalar bilan hamkorlikda bo'sh vaqt, bayramlarni spirtli ichimliksiz o'tkazish rejasini ham ishlab chiqishi lozim.

Faoliyatning asosiy metodi suhbat, maslahat, trening shaklida o'tkaziladigan oilaviy profilaktika hisoblanadi. Ijtimoiy pedagog ota-onalar harakatlariga axloqiy xarakter berishi lozim. Oilaviy profilaktika tanbeh, tahdidlarga asoslanmasligi lozim. U o'smirning tengdoshlari bilan aloqalarini to'g'irlashga, ularni ijobiy faoliyatga jalb etishga, oilada o'z maqomini tiklashga qaratilishi lozim.

O'smirlik davri inson faoliyatining eng murakkab davrlaridan biridir. Bu davrda uyg'un faoliyatning faollashuvi fanida organizmning barcha organlarining jadal rivojlanishi kuzatiladi. Bu jarayon jinsiy yetuklikning kelishi bilan yakun topadi. Organ va tizimlarning bunday qayta qurilishi bilan davom etadi. O'smir u uchun obro'li bo'lgan kattalarning ko'rsatmalariga amal qilgan kichik maktab yoshidan farqli ravishda o'smir o'z xulq-atvor tamoyillariga, o'z qarashlariga amal qilishga harakat qiladi, mustaqillikka ehtiyoj tug'iladi, kattalar nasihatlarini tanqid ostiga olinadi, ularga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi.

Tarbiyasi og'ir o'smirlar maktab intizomi va tartibini buzishadi, o'qishni xohlashmaydi, o'qituvchilar, tengdoshlar, ota-ona bilan nizolashadilar. Maktabni tashlab ketishadi, o'zlarini omadsiz deb bilishadi, ular daydilik qilishadi, spirtli ichimlik, giyohvand moddalar iste'mol qilishadi, huquqbuzarliklar sodir etishadi. Aynan o'smirlar jismoniy yoki jinsiy zo'rlik oqibatida o'z jonlariga ham qasd qilishlari mumkin.



Tarbiya¹⁰ pedagogikaning asosiy obykti sifatida pedagogika fanining rivojlanish tarixi mobaynida olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Shu bilan birga, “tarbiya” tushunchasining mazmuni amaliy ahamiyatga ega. Chunki, bu tushuncha pedagogik faoliyatning vazifa va maqsadlariga asosiy yondashuvlarni belgilaydi.

Tarbiya deganda shakllanayotgan shaxsda shaxsiy, axloqiy sifatlarni shakllantirishni tushunamiz. Tarbiya, ta’lim berish bilan mustahkam aloqada bo‘lgani holda o‘ziga xos qonuniyatlarga ham egadir. Ta’lim-tarbiya yagona jarayondir. Lekin, ular bir-biriga aynan o‘xshash emas. Ta’lim va tarbiyaning birligi avvalo, ularning maqsadining umumiyligidadir.¹¹


O‘smirlik davridan boshlab kattalar o‘smirga avvalgidek ta’sirlarini o‘tkaza olmaydilar va o‘smir uchun tengdoshlari bilan muloqatda bo‘lish katta ahamiyat kasb eta boshlaydi. O‘smirning ijtimoiy maqomi qancha past bo‘lsa, uning guruhga ta’siri shuncha kam bo‘ladi. Shuning uchun bu yoshda **ijtimoiy pedagog faoliyatida asosiy urg‘u guruh bilan ishlashga qaratiladi**. Bu quyidagi faoliyat yo‘nalishlari orqali amalga oshiriladi:

1. Ichkilikbozlik sabablari va oqibatlari profilaktikasi. Buni ichkilikbozlik bilan bog‘liq mavzularda bahs-munozaralar o‘tkazish orqali amalga oshirsa bo‘ladi. Bu mashg‘ulotlar natijasi guruhning barcha ishtirokchilari amal qiladigan guruh qarashining shakllanishi bo‘lishi lozim. Baxs-munozaradan tashqari rasmi o‘yinlar ham o‘tkazish mumkin. Ichkilikbozlik profilaktikasiga qaratilgan bunday o‘yinlarda o‘smirning shaxsiy rivojlanish, jamoaviy muomala malakalariga o‘rganishga erishsa bo‘ladi.

2. O‘smirlarning bo‘sh vaqtini tashkillashtirish, chunki bo‘sh vaqtini mazmunsiz o‘tkazish o‘smir tomonidan spirtli ichimlik iste’mol qilish xavfini oshiradi. Turli to‘garaklar, sport mashg‘ulotlari, sayohatlar tashkil qilish orqali o‘smirlar faoliyatlarini yanada yorqinroq qilish mumkin. Ijtimoiy pedagog o‘smirning qiziqishlarini bilishi va uning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga amaliy yordam berishi lozim.

3. Deviant xulq-atvorli o‘smirlar bilan ishlash. Bu yoshning pedagogic-psixologik xususiyatlari tufayli bo‘sh vaqtini o‘tkazishning jamoaviy shakllarini rivojlantirish lozim. Shuni inobatga olish lozimki, deviant xulq-atvorli o‘smirlar asosan intellektual faoliyat bilan emas, balki sport bilan shug‘ullanishga qiziqishadi. Shuning uchun ham, ularning sport to‘garaklariga qatnashishlariga yanada ko‘proq sharoitlar yaratib berish lozim.

Ijtimoiy pedagog faoliyatida asosiysi guruh bilan ishlash:



Maktab pedagog jamoasini ichkilikka qarshi yo'naltirish ham ijtimoiy pedagog vazifasi hisoblanadi. O'smir yoshidagi o'quvchilarning ta'lim dasturi bilan tanishish asosida ijtimoiy pedagog ichkilikka qarshi tarbiya elementlarini maktab darslari tarkibiga kiritishni ilgari surishi mumkin.

4. Ichkilikbozlikning axloqsiz omil ekanligini. Ijtimoiy pedagog tomonidan o'tkazilayotgan ichkilikka qarshi tarbiya o'smirda mustahkam antialkogol qarashlarni: sog'lom hayot tarzining zarurligi, organizm shakllanayotgan paytda spirtli ichimlik iste'mol qilish mumkin emasligi, ichkilikbozlikning axloqsiz omil ekanligini – shakllantirishga qaratiladi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, aynan o'smirlik davrida o'smirda ichkilikka ruju qo'yishning ilk bosqichining shakllanishi boshlanadi, u o'smir guruhlari sharoitida namoyon bo'ladi va shuning uchun ham "jamoaviy ichkilik tobeligi" xarakteriga ega bo'lishi mumkin. Biz bilamizki, o'smir katta bo'lishga yoki kattalardek ko'rinishga harakat qiladi. Bu ham ijobiy, ham salbiy ma'noda namoyon bo'ladi. Agar o'smir axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarga asoslanmasa ijtimoiy salbiy ma'noda yomon illatlarni keltirib chiqarishi, xususan chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, jinsiy mas'uliyatsizlik, huquqbuzarliklarda namoyon bo'lishi mumkin.

Shunday ekan, ijtimoiy pedagog o'smirlar guruhida shakllantirishi mumkin bo'lgan asosiy ijtimoiy malakalar bu ichkilikka qarshi dalillarni aniq ilgari surishi va tengdoshlari bosimiga qarshi tura olishidir. Bunda, ijtimoiy pedagog kuzatish, sayohat, suhbat kabi metodlardan samarali foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ammo, o'smirlarni qo'rqitadigan metodlardan umuman foydalanish mumkin emas deb hisoblaymiz. Chunki, buning oqibati yomon bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030 strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni
2. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston respublikasi Prezidentining PF 60-sonli Farmoni. 2022 yil 28-yanvar.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risi"dagi Qonuni. O'RQ-637 son 23.09.2020.
4. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 234 b.



5. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Moliya-iqtisod”, 2019. – 388 b.
6. R.M.Sarsenbayeva. Umumta’lim maktablarida o‘smir bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat. O‘zbekiston, OAK jurnali. Contributions of eastern thinkers to natural sciences (Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali). 2023, jild 03, nashr 11.
7. Hasanboyeva N. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2019

